

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING AFZALLIKLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398468>

Qurbonov Fazliddin Farxod o‘g‘li
Magistrant, Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning mintaqamiz iqtisodiy tarmoqlari uchun ahamiyati shundaki, iqtisodiyot rivojining eng yuqori pog‘onasidan ham cheksiz bo‘lgan iqtisodiyotdan ustundir. Yashil iqtisodiyot iqtisodning har qanday tarmoqiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tishning zaruriyati va afzalliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ekologik, iqtisodiy, investitsion, iqtisodiy faravonlik, yashil iqtisodiyot, barqaror jamiyat

Milliy ishlab chiqarish va eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘tishni ta’minlashning muhim omili bo‘lib hisoblanishini bugungi kunda hech kimga sir emas. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish izchil tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o‘tishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashish, “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumot berishicha Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan jadal foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish issiqlik va elektr energiyasi kabi energiyaning sanoat turlarini olishni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu uglevodorodlarning o‘rnini bosishga va ularni yuqori likvidli mahsulotlar, xususan, polimerlar, yoqilg‘ining sintetik turlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston geografik o‘rni va iqlim sharoitlariga ko‘ra buning uchun g‘oyat qulay

imkoniyatlarga ega. O‘zbekistonda havo bir yilda taxminan 300 kundan ziyod ochiq bo‘lib, mamlakatimiz yil davomida quyoshli kunlarning ko‘pligi bo‘yicha dunyoning aksariyat mintaqalariga nisbatan ustunlikka ega [1].

So‘nggi o‘n yillikda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ko‘plab hukumatlar va hukumatlararo tashkilotlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘ldi [2]. Hammasi bo‘lib, 65 ta davlat Yashil Iqtisodiyot va tegishli strategiyalarni ishlab chiqdi. Resurslar tanqisligidan tortib, iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy o‘zgaruvchanligigacha bo‘lgan XXI asrning asosiy muammolarini hal qilishga tayyor bo‘ladilar. Yashil iqtisodiyotga o‘tish nima uchun zarur degan savolga javob beradigan bo‘lsak. Yashil iqtisodiyot yer yuzidagi aholi uchun farovonlik olib keladi va kambag‘allik darajasini pasaytiradi. Barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darajasi, xoh u ta‘lim sohasi bo‘lsin xoh sog‘liqni saqlash bo‘lsin, xullas insonning farovon hayot kechirishi uchun nimaiki zarur bo‘lsa unga erishish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotni yaratishdan mohiyat shundaki, barqaror biznes modelga o‘tishda kapitalga nisbatan o‘sib borayotgan talabni qo‘llab quvvatlashdir. Savol tug‘iladi, bu nima uchun kerak? Bunda davlat institutsional investion fondlarning bosimi ostida doimiy ravishda issiqxona gazlarini ishlab chiqarishni nazorat qiluvchi yangi formatlarni ishlab chiqadi, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilovchi yangi aktlarni kiritib jamiyat rivoji uchun normativ bazalarni yaratadi. Bu esa allaqchon odamlar o‘ylaganidek g‘arb yangiligi emas, O‘zbekistonda qiziqish ortib borayotgan real hamda aniq chora-tadbirlar majmuidir. Ayni paytda O‘zbekistonda moliya sektorida yashil iqtisodiyot sanoat kabi barqaror rivojlanish kun tartibida dolzarb emas, chunki yashil moliyaviy vositalarni yo‘lga qo‘yish uchun yetuk moliyaviy bozor talab qilinadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlanish maqsadida quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga katta e‘tibor qaratildi:

- keng ko‘lamdagi tizimli bozor islohotlarini izchil amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarni barpo etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o'ylangan siyosatni amalga oshirish [3].

Mamlakatimizda YaIMning nafaqat miqdoran o'sib borishi, balki uning tarkibiy tuzilmasining sifat jihatidan takomillashib borishi ham alohida ahamiyatga ega.

Hukumatning yashil iqtisodiyot strategiyasiga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Umumiy Davlat Tahlili O'zbekiston aholisining o'sishi, urbanizatsiya va mavjud shahar va qishloq tengsizliklari barqaror atrof-muhitni boshqarish va iqlim ta'sirini cheklashni, shuningdek, uglerod chiqindilari va barqaror bo'lmagan naqshlarni kamaytirish bilan birga iqtisodiy o'sishga erishishni talab qilishini ta'kidlaydi. Xususan, O'zbekistonda ishlab chiqarish rivojlanishi va urbanizatsiya kuchayib borayotganini hisobga olib, toza, samarali, inklyuziv va barqaror sanoatga tavakkalchilikka asoslangan investitsiyalarni kiritish zarur. Qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash va qurg'oqchil hududlarda yashovchi, tirikchilik uchun qishloq xo'jaligiga bog'liq va iqlim o'zgarishi va suv tanqisligiga juda zaif bo'lgan eng kambag'al odamlarni suv resurslari bilan ta'minlash uchun ham ko'proq sarmoya kerak. Shuningdek, yaqinda energetika, sanoat, shaharsozlik, qurilish va uy-joy, chiqindilarni boshqarish, suv va qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha bir qancha boshqa tadqiqotlar ham o'tkazildi, jumladan, yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining 3-O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish samaradorligi va amalga oshirilishi, jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash sharhidir.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Qashshoqlikni qisqartirish tendentsiyasi COVID-19dan oldingi yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi, mikro va kichik korxonalar daromadlarining o'sishi,

eng kam ish haqining muntazam oshib borishi, pul o'tkazmalari oqimi va davlatning maqsadli ijtimoiy himoya dasturlariga asoslanadi. Inson kapitali nuqtai nazaridan, mamlakat samarali bandlik imkoniyatlarini taklif qilish, iqtisodiy tashabbuslar va innovatsiyalarni rag'batlantirish, talab qilinadigan bilim va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'zining katta yosh aholisidan demografik dividendlar olishi mumkin. Va nihoyat, mamlakat tabiiy kapitalga, ayniqsa yer resurslariga va mo'l-ko'l quyoshga ega.

Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o'z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ulardan kam bo'lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo'lishlari lozimligida namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda inson farovonligini oshirish, resurslarni saqlash va kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlarga duchor qilmaslikni ta'minlaydigan iqtisodiy modelga o'tish zarurati dolzarbdir. Biz iqtisodiy farovonlikka va kelajak avlodni iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga, ekologik xavflarga qo'ymaslikka faqatgina birdamlikda erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Стат. сб. – Т.: Узбекистан, 2011. – с. 14.
2. Renewables 2020 Global Status Report. www.fs-unep-centre.org ma'lumotlari asosida tuzildi.
3. Bayzakova D. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma.-J.: JizPI, 2022.45.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
5. 2030 yilgacha O'zRning "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

6. Qobulov X. A., Murtozayeva Z. K. Q. O'zbekistonda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy etilishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – С. 694-699.
7. Mohira Shavkat Qizi Davlatboyeva, Inomjon Turayevich Jumaniyazov Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari // Science and Education. 2023. №2.
8. Jumaniyazov Inomjon To'rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "2023-2025 yillar uchun Fiskal strategiyasi"
https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025